



O`QUVCHILARNING TIL O`RGANISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI

Rasulova Mubina Sherzodbek qizi

*Andijon Davlat Chet Tillari Instituti Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjima-shunoslik yo`nalishi 1-
bosqich magistranti*

Annotatsiya: *ushbu ma`ruzada xorijiy til kompetensiyalarini o`qitishda adabiyotning roli haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o`quvchi va talabalarda o`rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchaytirish, xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o`z kuchiga bo`lgan ishonchini oshirishni ham o`z ichiga oladi.*

Kalit so`zlar: *kompetensiya, innovatsiya, ma`naviyat, san`at va adabiyot, tajriba, interfaol usullar.*

KIRISH

Ilm-fan, texnika rivojlangan va shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamonda yangi texnologik jarayon va o`qitishning yangi zamonaviy usullarini ta`limga tatbiq etishda til va adabiyot muhim rol o`ynaydi. Ta`limda yangicha zamonaviy yondashuv, ayniqsa, xorijiy til o`qitishda adabiy asarlar muhim o`rin tutadi. O`quvchi va talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda adabiyotning, xoh ilmiy, xoh badiiy adabiyot bo`lsin, roli beqiyosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Avvalo, kompetensiya so`ziga izoh berib o`tishimiz joiz. "Kompetensiya" lotin tilidan olingan bo`lib, "layoqatli", "munosib bo`lmoq" kabi ma`nolarni anglatadi, ya`ni shaxslarning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi demakdir. Xo`sh, til kompetensiyasi nima? Demak, u shaxslarning biror tilni o`qib o`rganish, o`zlashtirish layoqati hisoblanadi. O`quvchi va talaba yoshlar til o`rganishda adabiyotlardan qancha to`g`ri foydalana bilsa, maqsadga tezroq erishadilar. Adabiyotlarni tanlashda maqsad qilib olingan mavzuni aniq-ravshan idrok qila bilish zarur, manbalarni to`g`ri tanlay bilgan inson maqsaddan adashmaydi, o`z ishiga ijodiy yondashadi.

MUHOKAMA

Adabiyotning o`quvchilarning til kompetensiyasidagi roli, ularning tilni o`rganish va uning ustuvor qobiliyatlarini rivojlantirishda juda muhimdir. Adabiyot, insonlarga tilni samarali ishlatishni o`rgatadi va ularni muhokama qilish, fikrlash va yozishda mohir bo`lishga yordam beradi. U o`quvchilarga tilni tushunish, izohlash va ta`riflashda yordam beradi. Ular adabiy asarlar orqali turli xil so`zlar, ifodalar va obrazlar bilan tanishib chiqadilar. Bu esa ularning so`zlashuvi, yozuvchilik va tinglovchilik sifatlarini rivojlantiradi. Adabiyot o`quvchilarga tilning ijtimoiy, madaniy va tarixiy mohiyatini tushuntiradi. Ular adabiy asarlar orqali turli davrlarda odamlarning fikrlarini, hissiyotlarini va maqsadlarni tushunib yetadilar. Bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarni tushunishiga yordam beradi. Adabiyot o`quvchilarga tilni kreativlik va innovatsiya uchun qo`llashga imkon beradi. Bundan tashqari, adabiyot o`quvchilarga tilni sevishtirishga imkon beradi. Adabiy asarlar orqali turli xil hikoyalar, she'r va dostonlar orqali ular tilga qiziqish uyg`unligini rivojlantiradilar.



Shuningdek, adabiyot o'quvchilarga insonlarning dunyoqarashi haqidagi tajribalarini yoyishga, ommalashtirishga ko'maklashadi. Ular adabiy asarlar orqali turli xil insonlarning hayoti haqidagi hikoyalardan ko'plab kerakli ma'lumotlarni oladilar va bu ularning dunyoqarashini kengaytirishga imkon beradi.

Insonning qanchalik so'z boyligi ko'p bo'lsa, boshqalarga shu qadar foydali, ta'sir doirasi shu qadar keng bo'ladi. Til va adabiyot fikrni to'laqonli ifoda etish qurolidir. Zero, o'y-fikr, his-tuyg'ular, o'zidagi haqiqat va ilhom uchqunlarini ifodalash va o'zgalarga in'om etish uchun berilgan adabiyotni kishi bebaho ne'mat deb bilmog'i darkor. Adabiyot millionlarcha ajdodlar tomonidan yaratilgan va sayqallangan tirik jondir, ya'ni u tinimsiz mehnat harakatlari, imo-ishoralari va ulardan paydo bo'lgan ruhiy g'ayrat-shijoatning billur qotishmasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek xalqi ham boy tarix va adabiyotiga ega donishmand elat hisoblanadi.

NATIJA

Millatning dahosi aqli va ma'naviyati asosan xalq og'zaki ijodi na'munalari-maqollaridan bilinadi. Har darsda muallim yosh avlodga shu adabiy sarchashmalarni singdirib borishi zarur. Til va adabiyotning sofligi, ma'no aniqligi, o'tkirligi uchun kurash-madaniyat va ma'naviyat uchun quroldir. Bu qurol qanchalik o'tkir bo'lsa, qanchalik aniq yo'naltirilsa, u shu qadar yengilmasdir. Demak, yosh avlod ta'lim-tarbiyasida adabiyotni yetakchi o'ringa olib chiqishimiz uning hamma qirralaridan unumli foydalana olishimiz kerak. Yurtimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta'lim-tarbiyasida maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka, ayniqsa ustoz va murabbiylarga katta mas'uliyat yuklaydilar. Shu javobgarlikni his qilgan holda biz-bo'lajak ustozlar ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatimizning barcha yutuqlarini o'zlashtirgan bo'lishimiz kerak.

Jumladan, chet tillarini bilish ham ona tilini boyitadi, uni yanada yorqin, mayin va ifodali qiladi. Xorijiy tillarni o'rganish har qanday sharoitda ham aqlni peshlaydi, boshqalar bilan bahs-munozara, mushohadaga kirisha olish imkoni va nafosatini tarbiyalaydi. Chet tilini puxta bilish kishini yetuk shaxs sifatida shakllantiradi hamda hayotiy kurashda muhim qurol vazifasini o'taydi. Chet tili bilan qurollangan mutaxassisning so'zi lanj, tushunarsiz, poyma-poy, no'noq va mujmal bo'lmaydi, ya'ni o'z ona tilida ham ravon ham teran fikrlaydi, mulohazalarini tinglovchiga to'g'ri va ta'sirli yetkaza oladi.

Til, adabiyot, san'at va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalardir. Ularda xalqning bor-yo'g'i, o'zligi gavdalanadi; adabiyoti, san'ati va madaniyati oqsagan xalqning ma'naviyati qashshoq, kelajagi mo'rt bo'ladi. Shuning uchun chin vatanparvar inson millatning adabiyoti, san'ati va madaniyatiga befarq bo'lmaydi, aksincha, ularni yuksaltirishda tinmay izlanadi, o'zining kamtarona hissasini qo'shishga harakat qiladi. Alalxusus, Navoiy, Bedil, Fuzuliyning o'qigan avlod adabiyot va san'atga umrining so'ngigacha shaydo bo'ladi, bunday latif insonlar qo'lidan also yovuzlik kelmaydi. Shoir Avaz O'tar ta'kidlaganidek:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.
G'ayri tilini sa'y qiling bilgani, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,



Bilmakka oni g`ayrat eting foidai kondur.
Ilm-u fan uyig`a yuboringlar bolangizni,
Onda o`qug`onlar bori yaktoyi zamondur.
Zor o`lmasun onlar dog`i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bag`ri to`la qondur.
Bir asr oldin aytilgan ushbu misralar hozirgi kun shioridek yangramoqda.

XULOSA

O`qituvchi sifatida Adabiyot so`z san`ati bilan qurollangan holda o`quvchi va talaba yoshlarga dars berish jarayonida zamonaviy interfaol usullardan unumli foydalanish zarur. Ilmga chanqoq, qiziquvchan yoshlar bilan “so`z zanjiri”, “aqliy hujum”, “o`yla, izla, top”, “so`zdan so`z yasash”, “klaster” kabi interfaol o`yinlar o`ynalsa, ularda fanga qiziqish, til o`rganish, mavzuni chuqur o`zlashtirish, bilim mohiyatini anglash kabi fazilatlar shakllanadi. Zero, yoshlari bilimdon va zukko davlat qudratli bo`lur! Bunda esa pedagog kadrlarning, ustoz-muallimlarning roli beqiyosdir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.Воронцов.Тafakkur gulshani. Vatandosh va horijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so`zlari – Toshkent. G`afur G`ulom, 1989.

2.Аvaz O`tar. She`rlar to`plami.1978. Xiva.

3.Ш. Mirziyoyev nutqi. Yangi O`zbekiston. 25.12. 2020.You tube.

REFERENCES

1.Воронцов.Тafakkur gulshani. Vatandosh va horijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so`zlari – Toshkent. G`afur G`ulom, 1989.

2.Аvaz O`tar. She`rlar to`plami.1978. Xiva.

3. Ш. Mirziyoyev nutqi. Yangi O`zbekiston. 25.12. 2020.You tube.